



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024-2025-o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda bilimni baholashning yangi tizimi qamrovini kengaytirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. 2024-2025-o‘quv yilidan 1500 ta umumta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilsin.

2. 2024-2025-o‘quv yilidan bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilayotgan umumta’lim maktablari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (O.Zokirov) 2024-2025-o‘quv yilidan umumta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini samarali joriy etilishini muvofiqlashtirib borsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini samarali joriy etilishini tashkil etish hamda doimiy nazorat qilish;

har chorak yakuni bo‘yicha tahliliy xulosalarni vazirlikka kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sifatli ta’limni ta’minlashda ijobiy natijalar ko‘rsatayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbariyati hamda o‘qituvchilariga ustama berish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6-maydagi 263-son qarori ijrosi haqida” 156-son buyrug‘ining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilishini muntazam ravishda vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali yoritib borsin.

7. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalariga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil “ 26 ”-avgust,
275-son



X.Umarova